

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 230 (1291), 2024-yil 13-noyabr, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



IQLIM O‘ZGARISHLARINING OQIBATINI BARTARAF ETISH MILLIY TARAQQIYOT STRATEGIYALARINI RO‘YOBGA CHIQRARISH YO‘LIDA MUHIM QADAM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-noyabr kuni Boku shahrida o‘tayotgan BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) doirasidagi Jahon yetakchilari sammitining yalpi majlisida nutq so‘zladi.



Tadbirda dunyoning 80 dan ortiq mamlakatidan davlat va hukumatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari rahbarlari ishtirok etmoqda.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevni ushbu tarixiy sammitni muvaffaqiyatli tashkil etgani bilan samimiy

tabriklab, Ozarbayjonning bugungi iqlim tahdidlariga qarshi kurashish maqsadida xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha faol sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatladi.



Prezidentimiz ta’kidlaganidek, iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib, geosiyosiy keskinlikning kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetik xavfsizlikni ta’minlash, ichimlik suv va resurslaridan foydalanish muammolari kuchayib bormoqda.

Iqlim o‘zgarishlarining oqibatini Markaziy Osiyo o‘tkir his qilmoqda.

Davomi 2-betda

HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHNING AMALIY JIHATLARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-noyabr kuni Boku shahrida o‘tayotgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha (COP29) konferensiyasi doirasida Yevropa kengashi raisi Sharl Mishel, Finlyandiya Prezidenti Aleksandr Stubb, Chernogoriya Prezidenti Yakov Milatovich, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, Islom taraqqiyot banki prezidenti Muhammad bin Sulaymon al-Jassir, Yashil iqlim fondi ijrochi direktori Mafalda Duerte, Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) bosh direktori Salim al-Malik, Global o‘zgarishlar instituti raisi Toni Blerni qabul qildi.



Yevropa kengashi raisi Sharl Mishel bilan uchrashuvda mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi bilan ko‘p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi

yangi bitimni tez fursatda qabul qilish, shuningdek, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” formatidagi birinchi sammitga tayyorgarlik ko‘rishga alohida e’tibor qaratildi.

Finlyandiya Prezidenti Aleksandr Stubb bilan uchrashuvda ko‘p qirrali O‘zbekiston — Finlyandiya

hamkorligini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi. Faol siyosiy va parlamentlararo aloqalar mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirish uchun metallurgiya, elektrotexnika, kimyo,

telekommunikatsiya va boshqa sohalarida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturini tayyorlash taklif etildi.

Shu ma’noda, 2025-yil yanvar oyida Xelsinki shahrida bo‘lib o‘tadigan Hukumatlararo komissiyaning

navbatdagi yig‘ilishi va biznes forumiga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING IQLIM O‘ZGARISHI BO‘YICHA KONFERENSIYASI (COP29)DAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalambor, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Janobi Oliylarini bugungi tarixiy Konferensiyani go‘zal Boku shahrida yuksak darajada tashkil etgani bilan samimiy tabriklayman.

Biz Ozarbayjonning zamonaviy iqlim tahdidlariga qarshi kurashish yo‘lida xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha faol sa‘y-harakatlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib bormoqda, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-

ovqat va energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytirmoqda.

Bulaming asoratlari Markaziy Osiyoda o‘tkir his qilmoqdamiz. Iqlim muammolari aholimizning turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro‘yobga chiqarishda yangi to‘siqqa aylannoqda.

Parij bitimi doirasidagi bosh maqsadimiz — mintaqada havo haroratining jadal o‘shishiga yo‘l qo‘ymaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 gradus atrofida saqlab qolishdir.

Bu borada biz O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlarni qat’iy olib boryapmiz. 2030-yilgacha havoga issiqxona gazlari chiqarilishini 35 foizga

kamaytirishni reja qilganmiz. Bu majburiyatni 2050-yilga qadar yanada kengaytirishga tayyormiz.

“Yashil” energetika ulushini 40 foizgacha oshiramiz. Elektromobil va “yashil” vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xabarlari yaratyapmiz. “Yashil makon” dasturimiz doirasida ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytiraymiz.

Qo‘shni mamlakatlar bilan Mintaqaviy iqlim strategiyasini hayotga tatbiq qilmoqdamiz. Shu kunlari Yevropaga “yashil” energiya yetkazish bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimni imzolaymiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

O‘zbekiston global iqlim o‘zgarishlari

oqibatlarini birgalikda bartaraf etishda o‘zining amaliy hissasini kengaytirish niyatida.

Birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko‘magini kengaytirish dolzarbdir.

Bu borada Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etishni taklif qilamiz.

Ikkinchidan, transchegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish va barqaror bioxilma-xilligini saqlashda yagona yondashuvlar zarur.

Mintaqamiz misolida aytib o‘tmoqchimanki, bir avlod ko‘z o‘ngida Orol dengizining butunlay yo‘qolishi sayyoramiz miqyosidagi

fojiga aylandi. Shu o‘rinda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish tarafdorimiz.

Uchinchidan, ko‘p tomonlama yetakchi tuzilmalar ishtirokida o‘simliklarning iqlim o‘zgarishlariga chidamliligini oshirish uchun Genetik resurslarning mintaqaviy bankini ishga tushirishni reja qilganmiz.

Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar uchun yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining innovation agrosanoat xabini yaratish tashabbusini ilgari suramiz.

To‘rtinchidan, iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo‘yicha ilg‘or bilim va amaliyodlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etishni va uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazishni taklif qilamiz.

Beshinchidan, kelgusi yili 15-may — Xalqaro iqlim kunida Orolbo‘yi mintaqasida o‘tkaziladigan Raqamli “yashil” tashabbuslar global yoshlar festivalida davlatlaringiz vakillarini kutib qolamiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! O‘zbekiston umumiy farovonlik va “yashil” taraqqiyot yo‘lida ochiq muloqot va sheriklikka doim tayyor ekanini yana bir bor ta’kidlayman.

IQLIM O‘ZGARISHLARINING OQIBATINI BARTARAF ETISH MILLIY TARAQQIYOT STRATEGIYALARINI RO‘YOBGA CHIQUARISH YO‘LIDA MUHIM QADAM

Boshlanishi 1-betda

Ular aholining turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro'yobga chiqarish yo'lida to'siqqa aylanmoqda.

Parij kelishuvlari doirasida asosiy maqsad — mintaqada havo haroratini jadal o'sishiga yo'l qo'ymaslik, ushbu ko'rsatkichlarni joriy yuz yillikda 1,5-2 gradus atrofida saqlab qolishdan iborat.

Bu borada O'zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo'yicha keng miqyosdagi islohotlar olib borilmoqda. 2030-yilgacha havoga issiqxona gazi chiqarishni uchdan bir qismga kamaytirish rejalashtirilgan. Bu majburiyatlar 2050-yilga qadar yanada kengaytiriladi. "Yashil" energetika ulushi 40 foizga yetadi.

Elektromobillar va "yashil" vodorod ishlab chiqarish klasterlari barpo etilmoqda, quyosh va shamol generatsiyasi xabarlari yaratilmoqda. "Yashil makon" dasturi doirasida ko'kalamzor hududlar kengaytirilmoqda.

Qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasi amalga oshirilmoqda. Shu kunlarda Yevropaga "yashil" energiya yetkazib berishni tashkil etish to'g'risida ko'p tomonlama bitim imzolanaadi.

Global iqlim o'zgarishlari oqibatlarini birgalikda yengib o'tish maqsadida O'zbekiston yetakchisi qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar duch kelayotgan iqlim xatarlarini tanqidiy tahlil va moliyaviy baholash uchun yetakchi davlatlar, ko'p tomonlama institutlar va konvensiyalarning texnik hamda moliyaviy ko'magini kengaytirish maqsadida Iqlim tufayli yo'qotish va zararlarni baholash bo'yicha xalqaro markaz ta'sis etish taklif qilindi.

O‘ZBEKISTON MINTAQAVIY VA GLOBAL XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MASALALARIGA MAS’ULIYATLI VA PRAGMATIK YONDASHUVNI NAMOYISH ETMOQDA

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Ar-Riyod shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari arab-islom sammitidagi ishtiroki va nutqi haqida

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-noyabr kuni Saudiya Arabistoni poytaxtida bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari arab-islom sammitida qatnashdi.

Davlatimiz rahbari sammitda so‘zga chiqib, O‘zbekistonning Yaqin Sharq muammosi bo‘yicha aniq pozitsiyasini ta’kidladi. Shuningdek, jahon hamjamiyatini uzoq muddatli mojarodan aziyat chekayotgan

Falastin va Livan xalqlarini qo‘llab-quvvatlashga hamda mintaqaning boy tarixiy, madaniy merosini va milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga chaqirdi.

Xalqaro ekspertlar rasmiy Toshkentning mazkur sammit minbaridan O‘zbekiston yetakchisi tomonidan bildirilgan pozitsiyasi va takliflarini yuqori baholamoqda.

Antonio ALONSO, San-Pablo universiteti professori (Ispaniya):

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning navbatdan tashqari arab-islom sammitidagi nutqi O‘zbekistonning murakkab Falastin — Isroil mojarosini tinch yo‘l bilan hal etishga intilishi qat’iy ekanini bildirdi.

Unda xalqaro hamjamiyat tomonidan harbiy harakatlarni zudlik bilan to‘xtatish va gumanitar yo‘laklarni ochishni qo‘llab-quvvatlash muhimligi haqli ravishda ta’kidlandi. O‘zbekiston rahbarining BMT va Xavfsizlik Kengashiga mojaroni keskinlashtirish masalasiga ustuvor ahamiyat berishga chaqiruvi, shubhasiz, ijobiy o‘zgarishlarga umid baxsh etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Falastin xalqi uchun poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil davlat barpo etilishini qo‘llab-quvvatlab, masalani adolatli hal etish yo‘lini chuqur anglashini ko‘rsatdi.

Su CHAN, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti yetakchi ilmiy xodimi:

— O‘zbekiston rahbarining Falastin muammosiga bag‘ishlangan sammitdagi ma’ruzasi bugungi kunda xalqaro hamjamiyat oldida turgan eng dolzarb va murakkab masalalarni kun tartibiga ko‘tarib, global siyosat kontekstida alohida ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston yetakchisi 2023-yilda Ar-Riyoddagi so‘nggi uchrashuvdan buyon mojaro ko‘lami yanada kuchayib, minglab begunoh odamlarning hayotiga zomin bo‘lganini, hayotiy muhim infratuzilmani vayron qilganini to‘g‘ri ta’kidladi.



O‘zbekiston Prezidentining ikki davlat yechimi uchun global alyansni qo‘llab-quvvatlashi uning uzoq muddatli tinchlikka erishish yo‘lida birgalikdagi sa’y-harakatlar zarurligini ko‘ra bilishini ta’kidlaydi.

Gumanitar yordam ko‘rsatishni kengaytirish chaqirig‘i, urushda jabrlangan falastinlik bolalar va ayollarni O‘zbekiston shifoxonalarida beg‘araz

O‘zbekiston rahbari ushbu mojaroga xalqaro munosabatda namoyon bo‘layotgan “ikki tomonlama standartlar” vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etishga bo‘lgan umidlarga putur yetkazishini va global xavfsizlikka rxna solayotganini bildirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev sammit ishtirokchilarini uzoq kutilgan tinchlikka erishishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish orqali ushbu muammoni hal etishda hamjihatlik va siyosiy iroda ko‘rsatishga chaqirdi.

davolash taklifi mamlakat hukumatining insonlar taqdiriga samimiy qayg‘urayotganidan dalolat beruvchi amaliy qadamdir.

Quddusning noyob tarixiy va madaniy yodgorliklarini, jumladan, Al-Aqso masjidini asrab-avaylashga ko‘maklashish tashabbusi alohida e’tiborga loyiq. Bunday yondashuv O‘zbekistonning umuminsoniy qadriyatlar va madaniy merosni asrab-avaylash borasidagi izchil intilishidan dalolat beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning Ar-Riyodda o‘tgan sammitdagi ishtiroki bu davlatning nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta’minlash masalalariga mas’uliyatli va pragmatik yondashuvidan guvohlik beradi.

Sammit yakuniy rezolyutsiyasining qabul qilinishi va diplomatik yo‘lga sodiqlikning mustahkamlanishi mintaga mamlakatlari o‘rtasida Yaqin Sharqda barqaror va adolatli yechim izlashda hamkorlik qilish uchun sharoit yaratadi.



HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHNING AMALIY JIHATLARI KO‘RIB CHIQUILDI

Boshlanishi 1-betda

Ta’lim va ekologiya sohasidagi almashinuvlarni mustahkamlash, shu jumladan, BMTning Orolbo‘yi uchun Trast jamg‘armasi faoliyatida Finlyandiyaning faol ishtirok etishi istiqbollariga alohida e’tibor qaratildi.

Bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ko‘rib chiqildi.

Chernogoriya Prezidenti Yakov Milatovich bilan uchrashuvda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va turizm sohaslarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi.

Iqtisodiy kun tartibini ishlab chiqish uchun Hukumatlararo komissiya tuzish va uning birinchi yig‘ilishini kelgusi yilda Toshkent shahrida biznes forumi bilan birgalikda o‘tkazish taklif etildi.

Bundan tashqari, savdo-iqtisodiy hamkorlik va investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha asosiy bitimlar tayyorlanadi, ustuvor yo‘nalishlarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga doir “yo‘l xaritasi” ishlab chiqiladi.

Bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ham ko‘rib chiqildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso bilan uchrashuvda ushbu nufuzli xalqaro moliya instituti bilan keng qamrovli hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Bankning mamlakatimizga investitsiyalari 5 milliard yevrodan oshgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston bankning mintaqamizdagi eng yirik hamkori hisoblanadi.

YTTBning faol ishtirokida bank sektorini xususiyashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda, investitsiyalar va yer qa’ridan foydalanish sohasidagi me’yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari loyihalarni tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

O‘zbekiston va YTTB o‘rtasidagi hamkorlik strategiyasini amalga oshirish va uni yanada

boyitish muhimligi ta’kidlandi. Energetika samaradorligi, kichik va o‘rta biznes, ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy soha va infratuzilmada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, “yashil” shaharlarni rivojlantirish sohaslarida yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirish hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

Kelgusi yilda Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig‘ilishini tayyorlash va o‘tkazish yuzasidan ham fikr almashildi.

Islom taraqqiyot banki prezidenti Muhammad bin Sulaymon al-Jassir bilan uchrashuvda ushbu yetakchi xalqaro moliyaviy institut bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Islom taraqqiyot banki bilan sheriklik jadal rivojlanib borayotganini yuqori baholadi. Joriy yilning mart oyida Toshkentda islom dunyosining yetakchi moliya institutlari ishtirokida bank rahbarligidagi Arab muvofiqlashtirish guruhining yig‘ilishi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

ITB bilan loyihalar portfeli 4 milliard dollardan oshdi, ularning 40 foizi xususiy sektorga to‘g‘ri kelmoqda.

Bank ishtirokida tashkil etilgan O‘zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘shma jamg‘arma kapitali izchil shakllantirilmoqda.

Ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma, tadbirkorlik, ekologiya sohaslarida yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish, xususiy investitsiyalarni safarbar etish, bank tuzilmalarini loyiha ishlariga faol jalb qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Mamlakatimiz sanoati va tog‘-kon tarmog‘idagi yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ITBning ishtiroki yuzasidan ham fikr almashildi.

Yashil iqlim fondi ijrochi direktori Mafalda Duerte bilan uchrashuvda iqlim o‘zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan qo‘shma loyiha hamda dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Jamg‘arma tomonidan O‘zbekistonning tegishli tashkilotlari salohiyatini rivojlantirish va milliy moslashuv rejalarni ishlab chiqishga ko‘mak ko‘rsatilayotgani yuqori baholandi.

Hozirgi kunda qo‘shma loyihalar portfeli 160 million dollarni tashkil etib, suv resurslarini boshqarish, “yashil” energetikani rivojlantirish, “yashil” moliyalashtirish va boshqa bir qator ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olgan. Bundan tashqari, 5 milliard dollarlik ikkita mintaqaviy va 500 million dollarlik uchta milliy loyiha ishlab chiqilmoqda.

Innovatsion ko‘kalamzorlashtirish va yerlarni barqaror boshqarish, Orolbo‘yidagi ijtimoiy-ekologik vaziyatni yaxshilash dasturlarini amalga oshirish orqali sheriklikni yanada kengaytirishga kelishib olindi.

Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) bosh direktori Salim al-Malik bilan uchrashuvda amaliy hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma gumanitar loyihalarni ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

ICESCO bilan hamkorlik bo‘yicha milliy komissiyani tezroq tuzish muhimligi qayd etildi.

Global o‘zgarishlar instituti raisi Toni Bler bilan uchrashuvda O‘zbekiston — Britaniya munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, Global o‘zgarishlar instituti bilan amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi.

Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli va ortga qaytmas islohotlar dasturini yuksak baholab, ularni amalga oshirishda ekspert-maslahat ko‘magini taklif etishga tayyorligini bildirdi.

Institut bilan birgalikda transport yo‘laklarini rivojlantirish, yangi bozorlarga chiqish, xalqaro to‘lov tizimlarini joriy etish, investitsiya siyosati samaradorligini oshirish va boshqa sohalar hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Sheriklikning aniq yo‘nalishlarini belgilab olish uchun tegishli idoralar ekspertlari darajasida qo‘shimcha uchrashuvlar o‘tkazishga kelishib olindi.

O‘ZA

E’tirof

AZIZ SANJAR TURKIY DUNYONING YUKSAK MUKOFOTIGA MUNOSIB KO‘RILDI

Hazrat Navoiy hayoti davomida ilm ahlini qo‘llab-quvvatladi. Ijodiy faoliyatida do‘stlik, hamjihatlik, yuksak insoniy gumanizm g‘oyasini ilgari surdi. Bugun yangi O‘zbekiston olib borayotgan tashqi va ichki siyosat zamirida ulug‘ ajdodlarga ehtirom, ular yo‘lini davom ettirishdek qutlug‘ maqsad mujassam.



Birgina turkiy dunyo birligiga qo‘shgan hissasi uchun Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etilishi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Zero, bugun ilm-fan, adabiyot va san’at orqali dunyoga ezigulikni targ‘ib etgan shaxslarni ulug‘layapmiz. Dunyoga, muhimi, yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatmoqdamiz. Shuning o‘ziyoq yangi O‘zbekiston tutgan yo‘lning qanchalik insonparvarlikka yo‘g‘rilganini ko‘rsatadi.

Mazkur xalqaro mukofot Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2021-yil 12-noyabrda Istanbulda bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining VIII sammitida ta’sis etilgan edi.

Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdagi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar Turkiya vakili Aziz Sanjar nomzodini qo‘llab-quvvatladi. Shu tariqa turkiy dunyoning yana bir yirik namoyandasi, kimyogar olim, Nobel mukofoti laureati, Shimoliy Karolina universiteti professori Aziz Sanjar turkiy dunyo birligiga qo‘shgan hissasi uchun Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotga munosib ko‘rildi.

Olim doim turkiy dunyo xalqlarini ulug‘lab, ilm-fan uchun munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Xususan, u yurtimizga bir necha bor tashrif buyurib, talabalar bilan uchrashgan, bir qator ilmiy tadbirlarda ishtirok etgan. Molekulyar biologiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarimiz bilan tajriba almashgan va yosh, iqtidorli olimlarimiz innovatsion ilmiy tadqiqot faoliyat bilan keng shug‘ullanishi uchun o‘z tajribasini o‘rtqolashgan. Shu o‘rinda unga “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro

universitetining faxriy doktori unvoni ham berilgan.

Umuman olganda, Aziz Sanjar o‘z ismi, ajdodlarga munosib tarzda bugungi turkiy olamning ilmiy salohiyatini dunyoga tanitishga munosib hissa qo‘shgan shaxs hisoblanadi. Bundan haqli ravishda faxrlanishini e’tirof etadi ham. Buni olimming bir necha yil avval yurtimizga kelganida aytgan quyidagi fikrlaridan bilib olish mumkin: “Dunyoda O‘zbekistonni Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek kabi jahon fanining tamal toshlarini qo‘ygan olimlar Vatani sifatida bilishadi. 2015-yilda menga kimyo va biokimyo fanlari bo‘yicha Nobel mukofoti berilganida bu nufuzli mukofotni mazkur fanlar asos solgan Beruniy va Ibn Sinolarning avlodi sifatida qabul qilib oldim”.

Shu o‘rinda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot kimlarga va qanday ishlari uchun beriladi degan savolga javob bersak. Mukofot bilan, avvala, tinchlikni saqlash, xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash, Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo va kuzatuvchi davlatlar o‘rtasida turli sohalarda ko‘p qirrali hamkorlikni

Ilmiy dunyodagi eng obro‘li ilmiy muassasalaridan biri — AQSH milliy fanlar akademiyasi a’zoligiga saylangan birinchi turkiy dunyo olimi Aziz Sanjar yurtimiz yoshlari bilan uchrashganida o‘z sohasida ko‘p qirrali va vatanparvar shaxs bo‘lish zarurligini ta’kidlagan. Bugun u xalqimizning ana shunday serqirra, yurt qadrlini ulug‘lab, oltin qafasni yantoqzor kenglikdan afzal bilgan mutafakkir Alisher Navoiy nomi bilan atalgan mukofotga munosib ko‘rildi. Shuning o‘ziyoq turkiy dunyo, xususan, yangi O‘zbekiston ajdodlarning o‘lmas g‘oyalari ila jadal odimlayotganidan dalolat.

Boboravshan G‘OZIDDINOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



O‘zbekistonda suv boshqaruvini raqamlashtirish, markazlashtirilgan axborot tizimi orqali suv boshqaruvini onlayn kuzatish va tahlil qilish hamda suv iste’molini aniq hisobga olish kelgusida qaror qabul qilish va suv tejashga yordam beradi.

Taraqqiyot mezonlari

2024-yil 13-noyabr, 230-son

ZARURIY DASTURLARNI BELGILASHNING OQILONA VA DOLZARB YO‘LI



Qo‘ng‘irotboy SHARIPOV,
oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri,
texnika fanlari doktori, professor

Kuzning iliq kunlari tugab, qish faslining yog‘ingarchilikka boy kunlari yaqinlashib kelmoqda. Dono xalqimiz aytganidek “Aqrabning yarmi kuz, yarmi qishdir”. Mamlakat darajasida yomg‘ir va qor, seldan samarali foydalanish suv tanqis bugungi davr uchun muhim ahamiyatga ega. Joriy yil 7-noyabrda davlatimiz rahbari raisligida qishloq xo‘jaligida suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish, yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Yomg‘ir va sel suvi omborini raqamlashtirish — suv tanqisligi muammosiga yechim

Videoselektorda O‘zbekistonda suv resurslarini tejash va samarali boshqarish sohasidagi islohotlar, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish jarayoni qishloq xo‘jaligi imkoniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi. Mamlakatimizda suvni hisobga olish va boshqaruvning shaffof tizimi yo‘lga qo‘yilgani tufayli yeming suv bilan ta’minlanishi yaxshilanib, milliardlab kub metr suv tejalayotgani alohida qayd etildi. Bu o‘zgarishlar suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini berish bilan birga, ekologik barqarorlikni ta’minlaydi.

Yig‘ilishda suv ta’minoti va boshqaruvini yanada takomillashtirishga qaratilgan qator muammolar ham mavjudligi aytilib o‘tiladi. Xususan, nasoslarni modernizatsiya qilish ishlari bajarilayotgan bo‘lsa-da, ko‘plab kichik nasoslar eskiligi sababli suv tannarxi hali ham yuqori. Qolaversa, suv tejashda betonlashgan kanallarning foydasi mavjud bo‘lsa-da, bu tajriba barcha hududda teng darajada joriy qilinmagani sug‘orishda suv isrof bo‘lishiga olib kelayotgani qayd etilib, holat nazoratga olinishi kerakligi ta’kidlandi. Shuning uchun kelgusida magistral hamda ichki kanallarni betonlashga qo‘shimcha mablag‘ ajratish rejalashtirilgani bu boradagi aniq vazifalarni belgilab berdi.

Yog‘ingarchilik mo‘l-ko‘l bo‘lgan hududlarda yomg‘ir va sel suvini to‘plash hamda boshqarishda energiyatejamkor nasoslar va quyosh panellari o‘rnatish orqali elektr energiyasini tejash va qo‘shimcha daromad olish mumkin. Masalan, Xorazm viloyati fermerlari quyosh panellari orqali suv nasoslarini quvvatlantirib elektr energiyasini tejashga erishmoqda. Natijada ortiqcha energiyani davlatga sotib, qo‘shimcha foyda ko‘rmoqda. Bu kabi innovatsion amaliyotlar nafaqat elektr energiyasini tejash, balki fermerlarning daromadini oshirish va yangi texnologiyalarni qabul qilishga rag‘batlantiradi.

Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va lazerli tekislash orqali yerni samarali sug‘orish qamrovli kengaytirilib, mavsumiy sel suvini yig‘ish orqali suv resurslarini to‘ldirish yo‘lida ham muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Bu choralar hududlardagi suv ta’minotini yaxshilash va yerni sug‘orishda barqarorlikni ta’minlash uchun ahamiyatlidir.

O‘zbekistonda suv boshqaruvini raqamlashtirish, markazlashtirilgan axborot tizimi orqali suv boshqaruvini onlayn kuzatish va tahlil qilish hamda suv iste’molini aniq hisobga olish kelgusida qaror qabul qilish va suv tejashga yordam beradi.

Suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ilg‘or gidrotexnika texnologiyalarini tatbiq qilish orqali fermerlar va sohadagi mutaxassislar uchun suv tejoychi texnologiyalar bo‘yicha o‘quv dasturlari hamda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish samaradorlikni oshirishga ko‘maklashadi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda mazkur jarayonda ilg‘or suv boshqaruvi standartlari asosida yangi yo‘nalish hamda takliflarni ishlab chiqish muhim. Xalqaro tajribani o‘rganish asosida O‘zbekiston sharoitiga mos keluvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish lozim. Masalan, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Germaniyada qo‘llanayotgan “suvga sezgir shahar” dizayni (WSUD) va “gubka shahar” konsepsiyasi kabi standartlar asosida suv boshqaruvini yo‘lga qo‘yish orqali suvni tejash va oqimni samarali boshqarish mumkin. Bundan tashqari, “aqlii suv” texnologiyalarini joriy etish bilan suv iste’molini real vaqtda monitoring va tahlil qilish qulay. Bu esa muammolarni erta aniqlash va tezkor choralar ko‘rishga yordam beradi.

Suv manbalarini optimal taqsimlash, markazlashtirish va saqlash tizimlari orqali suvni samarali saqlash imkoniyatlarini oshirish va uni O‘zbekistonda suv tanqisligini yengillatishda samarali qo‘llash mumkin.

Xususiy sektor bilan sheriklikni kuchaytirish va investitsiyalarni jalb qilish suv boshqaruvi infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan suv tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun sarmoyalarni jalb qilish lozim. Bundan tashqari, aholi va fermerlar o‘rtasida ekologik ongni oshirish va suv resurslarini tejashga e’tiborni kuchaytirish ham sohadagi muhim jarayonlardir.

Yomg‘ir, sel va qor massasidan hosil bo‘ladigan suv resurslari, tabiiy suv manbalarini tejash va ulardan samarali foydalanish hamda boshqarishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligida yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Videoselektorni qish mavsumi boshlanishidagi eng dolzarb va o‘z vaqtida o‘tkazilgan yig‘ilish deb aytilish mumkin. Chunki bugun dunyo bo‘ylab, xususan, mintaqamizga ham ekologik muammolar qatori suv tanqisligi jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu sababli O‘zbekistonda suv tejoychi innovatsion muhandislik texnologiyalarini keng joriy qilish, tabiatning bu noyob ne‘matini saqlash va tejash masalasida jadal islohotlar o‘tkazilmoqda.

Jahon meteorologiya tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga borib, dunyo aholisining yarmidan ko‘prog‘i, ya’ni 5 milliarddan ziyod odam suv tanqisligini boshdan kechirishi mumkin. Bunday tahlillar iqlim o‘zgarishi, aholi sonining ko‘payishi, daryo hamda boshqa suv resurslaridan samarasiz foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan muammolar sifatida baholanmoqda. Suvdan oqilona foydalanish nafaqat ayrim davlatlar uchun, balki global miqyosda ham dolzarb masalaga aylanmoqda.

O‘zbekistonda suv taqchilligi iqtisodiyotning turli sohalari, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va sanoatga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimiz suv resurslarining 80 foizini qo‘shni davlatlardan oladi, faqat 20 foizi mamlakat ichida shakllanadi. Bu vaziyat davlatimiz rahbarining oqilona pozitsiyasini tasdiqlab, Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo suvidan foydalanishda qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, o‘zaro yaxshi ko‘shnichilik va bir-birini to‘ldirish tamoyillariga asoslangan strategiyalarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

2030-yilga borib, O‘zbekiston suv ta’minotida 7 milliard kub metr suv yetishmovchiligi kuzatilishi hisobga olinsa, suv va suv resurslarini tejash hamda oqilona boshqarish strategiyasi



dolzarb masalaga aylanadi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotning barcha tarmog‘ida suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy qilish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Videoselektorda Prezidentimiz Markaziy Osiyoda suv resurslari taqchilligi muammosi institutsional yechimlar kutayotganini ta’kidladi. Ushbu muammoni hal etish mintaqa davlatlari, xalqaro moliya tashkilotlari va ekspertlar bilan ilmiy hamkorlikda sa’y-harakatlarni keng qamrovli diplomatik shaklda olib borishni talab etadi. Natijada Amudaryo va Sirdaryo kabi asosiy daryo manbalari mavjud mintaqada transchegaraviy suv masalalarini rejalashtirish bo‘yicha umumiy siyosat va chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruratiga aylanadi. Jumladan, suv tejoychi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish suv resurslarini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, nafaqat mamlakat sanoati va qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti, balki mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Suv resurslarini tejash va yog‘ingarchilikni innovatsion boshqarish zarurati

Agrar sektorga ixtisoslashgan mamlakatda qishloq xo‘jaligi, sanoat va aholining kundalik ehtiyojini qondirishda muvozanatni saqlash, iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash suv resurslari yetariligi bilan bog‘liq.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O‘zbekistonda suv tejoychi texnologiyalar, suv resurslari va yog‘ingarchilikni samarali tizimlashtirish jarayonini keng joriy etish vaqti keldi. Bu borada davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, respublikamizda 2 million gektar yerda suv tejoychi texnologiyalar tatbiq etilishi natijasida 2 milliard kub metr suv tejalgan. Afsuski, ayrim hududlarda suvtejamkor texnologiyalardan to‘liq foydalanilmayotgani aniqlangan. Bu esa nazorat va monitoringni kuchaytirish, texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish hamda ularni malakali kadrlar bilan ta’minlashni taqozo qiladi.

Videoselektorda 500 ming gektar maydonda qo‘shimcha suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish rejasini ishlab chiqilgan aytiladi. Jumladan, Qoraqalpog‘istonda lazerli tekislash uskunalari qo‘llash va har gektarga subsidiya ajratish tajribasi bu texnologiya samarali ekanini isbotladi. Chunki ekin maydonlarini sug‘orishdan oldin tekislash suv sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Endi Xorazm viloyatida ham lazerli tekislash tizimini kengaytirish rejalashtirilmoqda. Texnik subsidiyalar va moliyaviy yordam orqali fermerlarga bu texnologiyani joriy qilishni yengillashtirish muhim. Chunki ularning ehtiyojiga mos

Yomg‘ir va qor, sel suvini boshqarishda xalqaro institutsional tajriba

Bugun suv va suv resurslarini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish ommalashib, suv manbalari qisqarishi muammosi dolzarb bo‘lib bormoqda. Ekspertlar prognoziga ko‘ra, 2025-yilda rivojlanayotgan dunyo aholisining uchdan bir qismi suv tanqisligi muammosiga duch keladi.

Yer yuzida suv oqimi noteng taqsimlangan bo‘lib, ko‘p qismi yog‘ingarchilikning fazoviy va vaqtinchalik o‘zgaruvchanligi sababli mavsumiy toshqinlar orqali isrof bo‘ladi. Hozirgi texnik, ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali dasturlar orqali yiliga taxminan 9000-14000 kub kilometr suvning (yog‘ingarchilikning 8-13 foizi) nazorat qilinishiga erishilgan. Shuningdek, taxminan 3400 kub kilometr suv (3 foiz) turli maqsadda ishlatiladi. Bu o‘rinda eng katta ulush qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi, ya’ni umumiy suv iste’molining taxminan 70 foizini tashkil etadi. Qolgan qismi asosan, aholi turmush tarzi va sanoat ehtiyoji uchun sarflanadi. Hidroenergetika, ekotizimlar, navigatsiya va dam olish uchun ham suvdan foydalaniladi.

Jahon suv kengashi e’tirof etganidek, yog‘ingarchilikning mavsumiyligi va taqsimlanishi, ayniqsa, Osiyo mintaqasida suvdan samarali foydalanish va uni saqlash imkoniyatlarini bilan izohlanadi. Bu borada Bangladesh tajribasi shakllanib bormoqda. U yerda yog‘ingarchilikdan unumli foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi oshirilyapti. Mazkur mamlakatda muntazam yog‘ingarchilik va toshqinlar qishloq xo‘jaligi uchun zarur namlikni ta’minlaydi hamda tuproq hosildorligini oshiradi. Bu yerda tabiat suvi, kam foizli kredit va yangi texnologiyalar yordamida fermerlarni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorligini ta’minlash tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Yog‘ingarchilikdan texnologik foydalanish ko‘plab mamlakat, jumladan, Norvegiyada keng joriy etilgan. U yerda suv ta’minoti uchun asosiy manba ko‘l va suv omborlarida yig‘ilgan yomg‘ir suvidir. Suv toshqini sababli shaharlardagi yomg‘ir yoki sel suviga muammo sifatida qaralgan. Shuning uchun shaharlar maxsus suv chiqarish tizimi orqali drenajlashtiriladi. Iqlim o‘zgarishi sababli qisqa muddatli kuchli yomg‘ir yoki vaqti-vaqti bilan uzoq davom etuvchi ekstremal yomg‘ir hodisasi muhandislik infratuzilmalari orqali muayyan joyda to‘planadi. Yomg‘ir kuchayishi natijasida hosil bo‘ladigan suv toshqini tufayli oqova suv tarmog‘i orqali chiqariladigan cho‘kindiga ekologik zarar sifatida qaraladi.

Norvegiyaning ayrim hududida muayyan vaqt davomida qurg‘oqchilik va suv tanqisligi ortib bormoqda. Masalan, 2018, 2021-2022-yillarda bunday holat ko‘p kuzatilgan. Bu esa yomg‘ir suvini yig‘ish va ishlatish, shuningdek, chiqindilarni qayta ishlashning ahamiyatini yanada oshiradi. Qurg‘oqchilik, toshqin, iqlim o‘zgarishi va urbanizatsiya bilan bog‘liq muammolar suv resurslarini barqaror boshqarish zarurligini ko‘rsatmoqda. Yomg‘ir suvini muhim resurs sifatida qo‘llash bilan birga, undan turli ijtimoiy va ekologik manfa’atga ega, yashash uchun qulay, muhiti sog‘lom va barqaror shaharlarni yaratishda ajralmas qism sifatida foydalanish muhim.

Xalqaro miqyosda yomg‘ir suvini yig‘ish amaliyoti qadimiy davrlarga borib taqaladi. Lekin yomg‘irni yig‘ish va foydalanish rivojlanishi bo‘yicha mintaqalar o‘rtasida katta farq mavjud. O‘tmish tajribasiga ko‘ra, yetarli miqdorda toza suv manbai mavjud bo‘lmagan hududlar, masalan, Avstraliya, Braziliya, Misr, Isroil kabi mamlakatlar, shuningdek,

Xitoyning shimoli-g‘arbi, Italiya janubida bu tizim kengroq tarqalgan. Boshqa davlatlarda esa sekin rivojlangan yoki ba’zilarida endi rivojlanayapti. Jumladan, Norvegiyada yomg‘ir suvini yig‘ish va foydalanishga Oslo hamda sharqiy hududlardagi munisipalitetlar qiziqish bildirmoqda.

Oslo va Frogn kabi hududlar fuqarolarni yozda bog‘ sug‘orish uchun ichimlik suv o‘rniga yomg‘ir suvidan foydalanishga undamoqda. Bog‘ sug‘orish uchun yomg‘ir suvini to‘plash bo‘yicha qo‘llanmalar nashr qilingan. Kelgusi yillarda Oslo shahri hokimligi yomg‘ir suvini yig‘ishga suv oqimini nazorat qilish, toshqinning oldini olish va sport yoki ko‘ngilochar maqsadlarda foydalanish omili sifatida qaramoqda.

Fikrimizcha, Norvegiyada yomg‘ir suvini yig‘ish va sel suvidan foydalanish ko‘lami kelajakda, ayniqsa, iqlim va jamiyatdagi o‘zgarishlar sababli yanada kengayadi. Bu esa suv taqchilligiga duch kelayotgan O‘zbekiston kabi mamlakatlar uchun yomg‘ir suvini



yig‘ish va sel suvidan foydalanish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganishni talab etadi. Buning uchun innovatsion natijalar, jumladan, qadimiy texnologiyalardan to eng so‘nggi ishlanmalargacha amaliyotga tatbiq etish juda muhim.

Xalqaro tajribalarga ko‘ra, yomg‘ir va qor, sel suvini to‘plash bo‘yicha Avstraliyadagi keng qamrovli amaliyot, shuningdek, Xitoy, Portugaliya va Germaniyadagi yomg‘ir suvini yig‘ish tajribasi o‘rganishga arziydi.

Yomg‘ir suvining sifati, odatda, boshqa sirtlardan yig‘ilgan sel suvi sifatiga nisbatan ancha yaxshi. Chunki yer yuzasidan oqib kelgan suv odatda tuproq, organik moddalar va bog‘ o‘g‘itiga boy bo‘lib, turli qo‘shimchalarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli yomg‘ir suvidan samarali foydalanish mumkin.

Yomg‘ir suvidan foydalanishning xitoycha an’anasi va innovatsion texnologik bosqichlar

Xitoyda yomg‘ir suvidan foydalanishning uzoq tarixiy an’anasi mavjud bo‘lib, bu qadimiy davrlardan bugungacha davom etmoqda. Qadimiy xitoylik faylasuf Laoszi “Yaxshilik suvga o‘xshaydi. Chunki u barcha narsaga kerak, lekin hech nima talab qilmaydi”, degan. Mazkur hikmatdan ko‘rinib turibdiki, xitoyliklar ming yillar davomida yomg‘ir suvini yig‘ish loyihalari bilan shug‘ullangan.

Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar, ayniqsa, toshqinlar hamda qurg‘oqchilikka qarshi kurashish maqsadida Xitoyda yomg‘ir

suvini yig‘ish loyihalari yaratilgan. Bunday loyihalardan biri 1300 yildan ziyod tarixga ega bo‘lgan Hani terassalari. Terassalar tizimidan asosiy maqsad oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan birga, tuproq va suvni saqlash, eroziya va toshqinlardan himoyalashga xizmat qiladi. Hani qishloqlari tog‘ yonbag‘rida joylashgan, yuqorida o‘rmonlar, pastda esa terassalar bilan o‘ralgan. Yomg‘ir suvi o‘rmonlardan terassalarga yo‘naltiriladi va ortiqcha suv vodiya tubidagi daryoga oqadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti Hani Rays terassasini jahon ahamiyatiga ega qishloq xo‘jaligi merosi tizimi sifatida tan olgan. Yangi misollardan biri — Jyansi provinsiyasidagi Fushou drenaj tizimi. Bu kabi loyihalar odamlar tafakkuri va tabiat inijliklari natijasida yig‘ilgan bilimlar asosida amalga oshirilgan.

Zamonaviy yomg‘ir suvini yig‘ish tizimidan foydalanish Shimoli-g‘arbiy Xitoydagi Gansu provinsiyasida keng tarqalgan. Bu hudud yil davomida kam yomg‘ir yog‘adigan, quruq



joylardan. Yomg‘ir suvidan hududda ichimlik va boshqa ehtiyojlar uchun muhim manba sifatida foydalaniladi. Suv tanqisligi tufayli yomg‘ir suvini yig‘ish majburiy choraga aylangan. Shunga ko‘ra, Gansu mahalliy hukumati “121-yomg‘ir suvini to‘plash” loyihasini amalga oshirishga qaratilgan strategik qaror qabul qildi. “121” nomi har bir oilaga 80-150 kub metr maydonda yomg‘ir suvini to‘plash tizimini qurishga ko‘mak berishni, birinchi “1” ikkita yer osti idishini, har biri 15-20 kub metr hajmda bo‘lib, biri uy-ro‘zg‘or ehtiyojlarini, ikkinchisi esa to‘morgani sug‘orish uchun mo‘ljallanganini (“2”) va xonadon yonidagi maydonni sug‘orish uchun yomg‘ir suvi saqlanadigan havzani (ikkinchi “1”) bildiradi.

Xitoy hukumati 1996-yilda “Yomg‘ir suvini yig‘ish, sug‘orish” loyihasini taklif qildi. “121” loyihasi uy-ro‘zg‘or ehtiyojlarini qondirish uchun suv yetkazib bergan bo‘lsa, sug‘orish loyihasi dehqonlarga o‘z xonadonda iqtisodiyotni rivojlantirish va turmush sharoitini yaxshilashga yo‘l ochdi.

Yomg‘ir suvini yig‘ish amaliyotini tatbiq etishda standartlashtirish muhim ahamiyatga ega. Yomg‘ir suvini to‘plash, saqlash va foydalanish bo‘yicha texnik kod 2001-yilda birinchi marta sanoat standart sifatida joriy qilingan va SL267-2001 sifatida tasniflangan. Bu yomg‘ir suvini yig‘ish bo‘yicha Xitoydagi birinchi sanoat standartidir. U qishloq va shaharlarda ushbu suvdan foydalanishga qaratilgan.

Yomg‘ir va sel suvidan foydalanish turli mamlakat va mintaqalardagi suv resurslari, suvga talab, iqtisodiy rivojlanish va siyosiy jarayonlarga bog‘liq holda amalga oshirilayotgan innovatsiyalar samarador ekanini ko‘rsatadi.

XALQIMIZNING CHINAKAM OVOZIGA AYLANMOQDA

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangi davr boshlanmoqda

Bu xalqimiz bilan maslahatlashib 2023-yilda referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning yana bir muhim normasi amalda qo'llanilganini ko'rsatadi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili



Bobur SHOYOQUBOV,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi boshlig‘i, polkovnik

Bugun yangi O‘zbekistonni bunyod etishda yoshlar masalasiga, ularning ta‘lim-tarbiyasi va istiqboliga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Joriy yil 12-yanvarda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida O‘zbekiston Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan Qurolli Kuchlar akademiyasi oldiga shu yil Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Jizzax viloyatlarida tarbiyasi og‘ir va jinoyatchilikka moyil 19 ming 779 nafar yosh hamda ikki tumandagi mahallalarda yoshlarni otaliqqa olib ishlash, ularni o‘qitish, kasb-hunar, chet tillarni o‘rgatish, sog‘lom hayotga qaytarish va bandligini ta‘minlash vazifalari qo‘yildi. Mazkur topshiriq ijrosini ta‘minlash borasida akademiyaning qator chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Xususan, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda tarbiyasi og‘ir va jinoyatchilikka moyil yoshlar hamda “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlari dasturi tayyorlandi, “yo‘l xaritasi” tuzildi.

esa 100 xotin-qiz bilan seminar-treninglar o‘tkazildi. Mashg‘ulotlarga harbiy psixologlar jalb etildi. Yoshlarga gender siyosat mazmun-mohiyati tushuntirildi. Ularning tadbirkorlik faoliyati o‘rganilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda ish bilan ta‘minlash masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Akadeiya professor-o‘qituvchilari va tajribali harbiy murabbiylari yordamida yot g‘oyalarga berilishi mumkin bo‘lgan yoshlar bilan samarali ishlandi, ularda ijobiy fazilatlar bo‘y ko‘rsatishiga erishildi.

Uyushmagan yoshlar muammolarini hal etish bo‘yicha qanday natijalarga erishildi?

Har bir tadbir shunchaki o‘tkazilmaydi. U orqali natija ko‘zlanadi. Akadeiya tomonidan

Yoshlar – davlatning eng katta boyligi, bebaho kapitali, uni ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, intellektual va madaniy rivojlantirishning asosiy manbaidir. Shuning uchun biz qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, yoshlarga, ularning kuch-g‘ayrati va azm-u shijoatiga suyanamiz. Ularning timsolida Vatanimiz qanchalik beqiyos xazinaga ega ekanini chuqur his etamiz.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Jizzax viloyatida ro‘yxatga olingan, tarbiyasi og‘ir va jinoyatga moyil jami 4649 yoshning 144 nafari ishga joylashtirilib, 39 nafari kasb-hunarga o‘qitilgan, 93 nafariga tadbirkorlik uchun kredit ajratilgan bo‘lsa, 45 nafariga dehqonchilik uchun yer berilgan. 386 nafar yosh

haqli ravishda yoshlar mamlakati sifatida e‘tirof etilmoqda.

Keyingi yillardagi o‘zgarish va yangilanishlar davrida yoshlar ma‘naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, kayfiyatini o‘rganish, orzu-umidlarga quvvat berish davlat siyosatidagi muhim vazifalar qatoriga kirdi.

Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek va Shayxontohur tumanlaridagi o‘ttinga yaqin mahallada yashovchi uyushmagan yoshlar otaliqqa olindi. “Mahalla yetiligi” ko‘magida har bir uyushmagan yosh bilan faol ishlandi, ularning muammolarini hal etishda manzilli ishlar bajarildi.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, bugungi davrda g‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz — ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovning qo‘liga berib qo‘ymasdan, o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz, uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e‘tibor qaratishimiz zarur.

Yoshlar bilan tizimli uchrashuvlar, suhbatlar, tadbirlar o‘tkazilayotgani bu maqsad yo‘lidagi ishlarmizdan biridir. Mahallalarda ma‘naviy-madaniy tadbirlar o‘tkazildi, ma‘rifiy suhbatlar tashkil etildi. Bundan tashqari, profilaktika ishlari olib borildi. Ana shunday tadbirlardan biri “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari bo‘lib, mahallalarda uyushmagan yoshlar muammolarini ijobiy hal etish maqsadini ko‘zlagan. “Akadeimiyada bir kunim” loyihasi asosida otaliqqa olingan 5000 dan ziyod yosh akademiya bizga tashrif buyurdi. Ularni qiziqitirgan savollarga professor-o‘qituvchilar va kursantlar javob berdi. Do‘stona ruhdagi bu kabi uchrashuvlar yoshlarga ma‘qul bo‘ldi.

“Yashil makon” loyihasi bo‘yicha 10 mingga yaqin gul va daraxt ko‘chati ekildi. Mahallalarda harbiy orkestr, qo‘l jangi va faxriy qorovul chiqishlari uyushtirildi.

Mirzo Ulug‘bek tumanida 48 yoshning oliy ta‘lim muassasasi uchun shartnoma puli, 14 nafar yoshning SCHRga to‘lanadigan puli qoplab berildi.

1-noyabr holatiga ko‘ra, jami 150 yoshning muammolari hal etildi, 11 nafari profilaktik hisobdan chiqarildi hamda 94 nafariga psixologik ko‘mak ko‘rsatildi. 40 nafarining muammolari esa hal bo‘lish jarayonida.


Shayxontohur tumanida ham shu kabi ishlar amalga oshirildi. I-IV toifada jami 302 yoshga ko‘maklashildi.

Joriy yil fevral-iyun oylari davomida harbiy xizmatchilar ta‘til, xizmat safari va qo‘shinlar amaliyoti davrida viloyatlardagi 400 dan ziyod umumta‘lim, Prezident va ixtisoslashgan maktabga tashrif buyurib, Mudofaa vazirligiga qarashli OHTM, “Temurbeklar maktabi” va Jaloliddin Manguberdi harbiy-akademik litseyiga o‘qishga kirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot tadbirlari tashkil etdi. Ularga 16 mingdan ziyod yuqori sinf o‘quvchisi jalb qilindi, shuningdek, uchrashuv davomida vazirlik veb-saytlari hamda “Vatan tayanchi” otryadlari ish faoliyati bo‘yicha keng tushunchalar berildi.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlash, axloqiy-tarbiyaviy jarayonni kuchaytirish muhim vazifa bo‘lib qolaveradi. Shunday ekan, yoshlar bilan bog‘liq har bir ish bizni befarq qoldirmasligi shart.

HAR BIR YOSH BAXTLI YASHASHGA HAQLI

ULAR TAQDIRI DAVLATIMIZ E‘TIBORIDA



Manzil aniq, maqsad ayon

2024-yil mart oyidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Jizzax viloyatlarida akademiya mas‘ullari va harbiy xizmatchilardan iborat ishchi guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ular hududlarda otaliqqa olingan yoshlar bo‘yicha tashkil etilgan shtablar bilan hamkorlikda ishladi.

Hududlar rahbarlari hamkorligida “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlarining tashkiliy va moliyaviy masalalari hal etildi. O‘quv yig‘inlarida ishtirok etayotgan yoshlar 3 mahal issiq ovqat, harbiy kiyim-kechak, kerakli anjomlar, shaxsiy gigiyena vositalari, shuningdek, “Temur tuzuklari” va “O‘zbekiston tarixi” kitoblari, Mudofaa vazirligi ramzi tushirilgan sport kepikasi va futbolka bilan bepul ta‘minlandi. Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Ularga keng ko‘lamli yordamlar ko‘rsatilmoqdaki, og‘ir va jinoyatchilikka moyil hamda uyushmagan yoshlarning zamon talablari asosida o‘qitilishi, malaka ko‘nikmalarini egallashi ayni muddao bo‘lmoqda.

1-noyabrga qadar mazkur manzillar kesimida yuz martadan ortiq “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlari tashkil etilib, tarbiyasi og‘ir va jinoyatchilikka moyil jami yigirma mingdan ziyod yosh qamrab olindi.

O‘quv yig‘inlari davomida besh yuzdan ortiq tadbir o‘tkazilib, ular turli yo‘nalishlar kesimida tashkil etildi. Masalan, mazkur

tadbirlarning 100 ga yaqini harbiy-texnika va qurol-aslahalar ko‘rgazmasi bo‘lsa, 80 ga yaqini davlat arboblari, yozuvchi va shoirlar, faxriylar bilan uchrashuvlardir. Chunonchi, Xorazm viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlanish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari San‘atbek Salayev, viloyat prokurori Murod Ahmedov, Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i Po‘lat Maxsetboyev, Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘mondoni Farhod Shermatov, Jizzax viloyati hokim o‘rinbosari Akmal Sovurboyev uyushmagan yoshlar bilan uchrashib, muammolari, qiziqishlari, orzu-istaklari bilan yaqindan tanishdi. Samimiy ruhda o‘tgan muloqotlar yoshlarga manzur bo‘ldi.

Dunyodagi eng ta‘sirchan va ommaviy san‘at turi teatrdir. U odamlarni eziguliklarga chorlaydi. Xususan, yoshlar qalbidagi go‘zal his-tuyg‘ular, olijanoblik xislatlarini kamol toptirishda, jamiyat hayotida tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashda teatrning muhim o‘rni bor. Hududlarda namoyish etilgan spektakllar yoshlar qalbidagi ana shunday ezigu hislar uyg‘onishiga sabab bo‘lsa, ne ajab.

Sport musobaqalari, vatanparvarlik ruhidagi ko‘ngilochar tadbirlarda sport ustalari, shoir va yozuvchilar ishtirok etdi. Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoir Bobur Bobomurod vatan, sadoqat ruhi bilan yo‘g‘rilgan she‘rlarini o‘qib bergan bo‘lsa, tanilqij rejissyor Hilol Nasimov “Hayot” filmini taqdim qildi.

Tinchlik va osoyishtalik – ikki bebaho ne‘mat

Yoshlarning psixofiziologik holatiga ham jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. Muntazam tekshiruvdan o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, yoshlarning kasbiy yo‘nalgani va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda duch kelayotgan muammolari o‘rganildi. Har bir yig‘in mobaynida asosiy e‘tibor yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, mono va o‘quv markazlarining imkoniyatlari, yaratilgan imtiyozlar bilan yaqindan tanishtirishga qaratildi. Natijada 3320 yoshga kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha maslahatlar berildi. Uy-joy subsidiyasi, dehqonchilik uchun yer ajratilishi hamda xorijga chiqib ishlashning huquqiy asoslari tushuntirildi.

Ayni paytda uyushmagan yoshlar bilan 28 soatlik nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hamda seminar-treninglar tashkil etilib, ular ongiga jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etilganda jazo muqarrarlari singdirilmoqda. Bu kabi mashg‘ulotlarda yoshlar ongida tinchlik va osoyishtalikning bebaho ne‘mat ekanini va shaxsiy daxldorlik hissi shakllantiriladi.

Shu yil iyul oyida Urganchdagi harbiy qismda 14-17 yoshdagi 120 o‘g‘il-qiz bilan 5 kunlik “Vatanparvar yoshlar lageri”da profilaktika va madaniy-ma‘rifiy tadbir tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 17-30 yoshli 300, Xorazm viloyatida 220, Jizzax viloyatida



safarbarlik chaqiruv rezervi badali qoplangan, 88 nafari davolatilgan, 328 nafari turli fan va chet tillarga o‘qitilgan, 248 nafarining kontrakt to‘lovlari to‘langan, 206 nafariga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatilgan hamda 147 nafar yosh profilaktik hisobdan chiqarilgan.

ta‘kidlaydi. Bu so‘zlar mamlakatimizda yoshlarga oid siyosatning asl o‘zagini tashkil etadi, desak yangilishmaymiz. Zero, mamlakatimiz 19 milliondan ziyod yoshni asosiy boyligi deb hisoblaydi, ularga suyanadi. Bundan faxrlanadi. Shu bois, O‘zbekiston xalqaro hamjamiyat tomonidan



O‘zbekiston – bag‘rikeng mamlakat. Unda turli millat va elat vakillari asrlar davomida ahil-inoq yashab kelgan.

Qiyin kunlarda bir-biriga yordam berib, quvonchli damlarda shodligiga sherik bo‘lgan.

Bag‘rikenglik xalqimiz uchun shunchaki umuminsoniy xislat bo‘libgina qolmay, davlat darajasida e‘tibor qaratiladigan qadriyat hamdir.

BMT Bosh Assambleyasi qaroriga ko‘ra, 1997-yildan buyon har yili butun dunyoda 16-noyabr Xalqaro bag‘rikenglik kuni sifatida nishonlanadi. Bu sanani yurtimizda ham nishonlash yaxshi an‘anaga aylangan.

2019-yildan buyon ushbu sanaga bag‘ishlab tadbirlar tashkil etiladi.

Bugun O‘zbekiston jahon mamlakatlari uchun bag‘rikenglik namunasini o‘zida mujassam etgan davlat sifatida namoyon

bo‘lmoqda. Davlatimizning bu boradagi ko‘p asrlik tajribasi, millatimizga xos bag‘rikenglik Markaziy Osiyo va boshqa rivojlangan mamlakatlarga uchun andaza bo‘lib xizmat qiladi, desak mubolag‘a emas.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mita hamda Din ishlari bo‘yicha qo‘mita qator tashkilotlar bilan hamkorlikda Xalqaro bag‘rikenglik kuniga bag‘ishlab mamlakatimizda “Bag‘rikenglik haftaligi”ni o‘tkazmoqda. Haftalik doirasida davra suhbatlari, konferensiyalar, foto-ko‘rgazma va boshqa madaniy-ma‘rifiy, ilmiy-amaliy tadbirlar tashkil etilishi belgilangan.

Haftalikni o‘tkazishdan asosiy maqsad fuqarolik burchi, mas‘uliyatini anglash, vatanparvarlik, sha‘n va qadr-qimmat, shuningdek, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini mustahkamlash orqali aholi, jumladan, bolalar va yoshlarning jamiyat rivojidagi ishtirokini faollashtirish, millatlararo totuvlik va konfessiyalararo bag‘rikenglik hissinani yanada kuchaytirishga hissa qo‘shishdir.

Haftalikning ilk tadbiri O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Media markazida

mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, xorijiy davlatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish borasidagi ishlar yuzasidan “O‘zbekiston — bag‘rikeng diyor” mavzusida Xalqaro press-klubning navbatdagi sessiyasi bilan boshlandi.

Press-klub sessiyasida qator tashkilotlar, milliy madaniy markazlar rahbarlari va konfessiya vakillari ishtirok etdi. Speklarlar mamlakatimizdagi millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik siyosatiga yuqori baho berib, “Bag‘rikenglik haftaligi” doirasida bo‘lib o‘tadigan tadbirlar xalqlarimiz orasidagi do‘stlik rishtalari, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishini ta‘kidladi.

Xalqaro press-klub sessiyasidan so‘ng “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida turli millat va diniy konfessiya vakillari ishtirokida Mustaqillik monumentiga gulchambar qo‘yish tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Haftalik dasturiga ko‘ra, yurtimizning barcha hududida turli tadbirlar o‘tkazilishi belgilangan. Davlat umumta‘lim maktablarida “Milliy an‘ana va udumlar” ko‘rgazmalari, “Bag‘rikenglik — mening nazdimda” mavzusida insholar tanlovi, “Mening bag‘rikeng dunyom” mavzusida

Yeji MATSULEVICH, O‘zbekistondagi Rim-katolik cherkovi yepiskopi:

— Ilgari Xalqaro bag‘rikenglik kuni faqat bir kun nishonlangan bo‘lsa, hozir butun haftalik doirasida bayram qilinmoqda. Bu ham O‘zbekistonning qanchalik bag‘rikeng mamlakat ekanini

ifoda etadi. Qolaversa, butun millat, elat hamda turli din vakillari ahil va totuv yashayotganini ko‘rsatadi. Mazkur bayram bilan butun O‘zbekiston ahlilni muborakbod etaman.

Guldana AVEZDURDIYEVA, Respublika turkman madaniyat markazi raisi:

— Bag‘rikenglik O‘zbekistondagi turli millatlar hamjihatligi, birdamligi ifodasidir. Tarixga nazar solsak, o‘zbek xalqining bag‘rikengligi o‘ziga xos qadriyatga aylanib ulgurgan. Albatta, bu qadriyatning munosib davom etirilishi, kelajak avlodga o‘z holicha yetkazilishi bugunning talabi. Haftalikning yuqori saviyada o‘tkazilayotgani, hech shubhasiz, millatlarimiz orasidagi totuvlikni

yanada rivojlantiradi, mehr-oqibatni yanada mustahkamlaydi.

Fursatdan foydalanib, Respublika turkman madaniyat markazi hamda O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan turkman millati vakillari nomidan barcha vatandoshlarni bayram bilan samimiy muborakbod etaman. Do‘stligimiz, hamjihatligimiz hamisha barhayot bo‘lsin!

rasmlar tanlovi hamda bag‘rikenglikni targ‘ib qiluvchi she‘rxonlik kechalari o‘tkaziladi.

Davlat oliy ta‘lim muassasalarida “Biz — bir mamlakatda yashayotgan yagona xalqimiz”, “Diniy ma‘rifat va millatlararo bag‘rikenglik — jamiyat barqarorligi sharti”, “Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik — umrbogiy qadriyatlar” mavzularida davra suhbatlari, “O‘zbekiston — umumiy uyimiz” mavzusida ilmiy-amaliy va ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) lardagi xiyobon va sayilgohlarda “O‘zbekiston

— bag‘rikeng diyor” shiori ostida madaniy tadbirlar, qardosh xalqlar yozuvchi, shoir va rassomlarining badiiy asarlari ko‘rgazmalari bo‘lib o‘tadi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda nodavlat telekanallar orqali o‘zbek xalqining bag‘rikengligi, mehmondo‘st va tinchliksevarligi hamda buyuk ajdodlar merosiga bag‘ishlangan badiiy va hujjatli filmlar namoyishi ko‘zda tutilgan.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“O'ZBEK MO'JIZASI”

HAQIDAGI KITOB

O'tkir OCHILOV,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lidagi islohot, o'zgarishlar jarayonini xalqimizga yetkazib, davlat siyosatining ma'no-mazmunini ochib berish ommaviy axborot vositalarining ustuvor vazifasidir. Ayni paytda mamlakat manfaatlarini himoya qila oladigan jamiyat yaratish uchun xalqaro vaziyat to'g'risida ham tahliliy maqolalar e'lon qilib boriladi. Shu orqali ommaning siyosiy tafakkuri o'sishiga erishiladi. Yurt taqdiriga befarq bo'lmagan qatlam shakllanadi.

“Yangi O'zbekiston” gazetasi ana shu jarayonning oldingi safida borayotgan nashrlardan biridir. Mazkur gazetaning o'ziga xos jihati shundaki, har bir soha bo'yicha yuqori nufuzli, malakali ekspertlarning maqola, intervyu, munosabatlari e'lon qilib boriladi. Shu orqali ishonchli va chuqur tahliliy asosga ega axborot yetkazishda samaradorlikka erishilyapti.

Gazetaning doimiy mualliflari orasida ham nazariy, ham amaliy boy tajribaga ega taniqli olimlar, milliy va xalqaro darajadagi nufuzli ekspertlar, davlat va jamoat arboblari, adabiyot va san'at vakillari bor. Akademik Akmal Saidov gazetaning eng faol mualliflaridan biri. Olim 200 dan ortiq monografiya, 100 ga yaqin darslik, 600 dan ortiq ilmiy maqola, 140 dan ortiq taqriz, 1100 dan ortiq publitsistik maqola muallifi hisoblanadi. Kitoblari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilinib, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Avstriya, Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Ukraina, Polsha, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, Qatar, O'mon va boshqa mamlakatlarda nashr etilgan.

Akmal Saidovning “Yangi O'zbekiston” gazetasi kutubxonasi” turkumida chop qilingan “Yangi O'zbekistonning siyosiy-huquqiy falsafasi” kitobida mazkur gazetada e'lon qilingan ellikdan ziyod siyosiy-huquqiy publitsistik maqolasi jamlangan. Muallif yangi O'zbekiston milliy, siyosiy va huquqiy tizimidagi islohotlar mazmun-mohiyatini mahorat bilan gazetonlarga sharhlab beradi. Maqolalarning qiymati shundaki, muallif mamlakatimiz taqdiri va istiqboli uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan muhim ijtimoiy, siyosiy va huquqiy islohotlar jarayonini ushbir tashkilotchilaridan biri, guvohi va ishtirokchisi sifatida tahlil qilgan.

Kitob sakkiz qismdan iborat. Birinchi qismga “Yangi O'zbekiston me'mori va tashabbuslari” deb nom berilgan. Undan joy olgan maqolalarda yangi O'zbekiston siyosiy poydevorining qurilishi va mustahkamlanishi to'g'risida mushohada yuritilgan. Prezidentimiz rahbarligida ulkan islohotlar va tub demokratik o'zgarishlar amalga oshirilayotgani, “xalqimizning ulug'vor qudratiga tayanib, O'zbekistonda yangi Uyg'onish — Uchinchi Renessans davri poydevori” yaratilayotgani ko'plab misollar bilan ko'rsatib berilgan.

Kitobda ta'kidlanganidek, O'zbekiston so'nggi yillarda xalqaro hamjamiyatga o'z eshiklarini keng ochdi. “O'tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning jahon miqyosidagi siyosiy o'rni va nufuzi keskin oshdi. O'zbekiston bugun o'zining uzoqni ko'zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi”. O'zbekiston Prezidentining nufuzli xalqaro

tashkilotlar oliy minbaridan turib ilgari surgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlangan milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslari izchillik bilan ro'yobga chiqmoqda. Muallif “Yangi O'zbekiston rahbari o'z yo'lidan mustaqil borish huquqini izchil himoya qilayotgan zamonamizning sanoqli siyosatchilaridan biridir”, degan xulosaga kelgan.

A.Saidov davlat rahbarining keyingi yillarda qo'lga kiritgan natijalarini sanash bilan kifoyalanmay, mamlakatimiz hayotida hal etilishi kerak bo'lgan muammolar mavjudligiga ham katta e'tibor qaratayotganiga urg'u beradi. Albatta, O'zbekiston oxirgi yillarda sezilarli yangilanishlarga erishdi. Muhimi, Prezident davlat idoralari xalqimizga ochdi: “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan muhim konstitutsiyaviy tamoyilni hayotimizga izchil, tizimli va qat'iyat bilan joriy etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda”.

Muallif shu o'rinda davlatimiz rahbarining orzudagi yangi O'zbekistonni bunyod etish hali juda olis va mashaaqqatli yo'lni bosib o'tishni talab qilishini, lekin “biz dadil oldinga borishdan, kerak bo'lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan cho'chimasligimiz zarur”ligi to'g'risidagi chaqiriqlarini keltiradi.

AKMAL SAIDOVNING
“YANGI O'ZBEKISTON”
GAZETASI KUTUBXONASI”
TURKUMIDA CHOP QILINGAN “YANGI
O'ZBEKISTONNING SIYOSIY-HUQUQIY
FALSAFASI” KITOBIDA MAZKUR
GAZETADA E'LON QILINGAN ELLIKDAN
ZIYOD SIYOSIY-HUQUQIY PUBLITSISTIK
MAQOLASI JAMLANGAN. MUALLIF
YANGI O'ZBEKISTON MILLIY, SIYOSIY
VA HUQUQIY TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR
MAZMUN-MOHİYATINI MAHORAT
BILAN GAZETXONLARGA
SHARHLAB BERADI.

Kitobning ikkinchi qismi “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” deb nomlanib, unda mamlakatimizni yangilash strategiyasiga ekspert sifatida siyosiy-huquqiy baho beriladi.

Strategiya — yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “sarkardaning san'ati” ma'nosini anglatadi. Qadimgi davrlardan strategiya mamlakatni rivojlantirish va mudofaa qilish maqsadida davlatning uzoq muddatli choralar rejasi tashkil qilgan. Strategiya eng muhim maqsadlar va yo'nalishlardir.

Qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy: “Agar maqsadga erishish imkoniyati yo'qday ko'rinsa, maqsadni o'zgartirmanglar, balki maqsadga erishish bo'yicha o'zingizning harakat dasturlaringizni o'zgartiringlar” deb yozgan edi. Strategiyaning vazifasi asosiy maqsadga erishish uchun mavjud imkoniyat va resurslardan samarali foydalanishdir.

Hozirgi kunda muayyan davlat strategiyasi — bu muayyan maqsadga erishish uchun mamlakatning uzoq vaqtga mo'ljallangan asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradigan amaliy harakatlar dasturidir. Global o'zgarishlar shiddatli tus olgan zamonada mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi belgilanib, barcha resurslar uni bajarish uchun safarbar etilishi, islohotlar izchil amalga oshirilishi juda muhim.

Muallif “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi 7 ustuvor yo'nalishning bosh g'oyasi inson qadriini ta'minlash” ekanini e'tirof etgan. Shu munosabat bilan milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotda “davlat — jamiyat — inson” tamoyili “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga o'zgartirilganini alohida

ahamiyati, uning amalga oshirilish jarayoni va natijalari tahlil qilingan. Muallif “davlat va jamiyatda tub o'zgarishlar ro'y berayotgan bir paytda tabiiy ravishda Konstitutsiyaga jiddiy o'zgartishlar kiritish taqozo etiladi. Zero, har qanday demokratik islohotlar chin ma'noda xalqchil konstitutsiyaviy asosga ega bo'lsagina, yanada bardavom bo'ladi, ko'zlangan ezgu maqsadlarga erishadi”, deb yozadi.

Akademik Akmal Saidov tomonidan O'zbekistonda taqdim qilingan konstitutsiyaviy islohotlar tahlili ikki jihati bilan qimmatli hisoblanadi:

birinchidan, uning qiyosiy huquqshunoslik sohasida nazariy va amaliy tajribaga ega xalqaro darajadagi taniqli mutaxassis olim sifatidagi ekspert xulosalari yuqori nufuzga ega;

ikkinchidan, olimning O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha konstitutsiyaviy komissiya raisi, konstitutsiyaviy islohotlarning bevosita tashkilotchilaridan biri sifatidagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan keng ko'lami vazifalar, xalqparvar davlatni barpo etish, inson huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada samarali ta'minlash kabi maqsadlar



ta'kidlagan: “Taraqqiyot strategiyasida asosiy e'tibor, — deb yozadi muallif, — bir tomondan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir qonunlar, kodekslar, konsepsiya va dasturlar qabul qilinishiga qaratilgan. Ikkinchi tomondan, unda qonun ustuvorligini ta'minlash, konstitutsiyaviy islohotni hayotga izchil tatbiq etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, ma'naviyatni rivojlantirish, shuningdek, global muammolarga O'zbekistonning munosabati, xavfsizlik va tashqi siyosat borasidagi muhim vazifalar qamrab olingan”.

Kitobning uchinchi qismi “Yangi O'zbekiston: konstitutsiyaviy islohotlar”, deb nomlangan. Unda mamlakatning strategik rivojlanishida konstitutsiyaviy qurilishning

mamlakatimizdagi tub islohotlarga mos yangi konstitutsiyaviy huquqiy makonni yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda deb yozadi olim.

Kitobning “Yangi O'zbekiston — inson qadr-qimmatini va inson huquqlari ulug'langan yurt” deb nomlangan to'rtinchi qismida barcha islohotlarning pirovard maqsadi inson qadri hamda huquq va manfaatlarini ta'minlash ekaniga e'tibor qaratilgan. Bolalar, ayollar, yoshlar, qariyalr, nogironligi bo'lgan shaxslar, muhojirlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar, ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan shaxslarning “hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyili asosida davlat himoyasi kuchaytirilayotgani yangi O'zbekiston mohiyatining eng muhim jihati ekanini tizimli taqdim etilgan dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

Kitobda yangi O'zbekistonning inson huquqlarini ta'minlash borasidagi amaliy harakat va tashabbuslari nafaqat mamlakat va

mintaq, balki xalqaro miqyosdagi siyosatning markazida turgani ta'kidlangan. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan BMT rezolyutsiyalari qabul qilingani, BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi loyihasi ishlab chiqilgani, O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga saylangani va boshqa qator xalqaro ahamiyatga molik tadbirlar shular jumlasidandir.

Kitobning beshinchi qismi “Yangi O'zbekiston parlamentining faoliyati” deb nomlangan. Unda muallif Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikerining birinchi o'rinbosari hamda xalqaro darajadagi parlamentshunos olim va amaliyotchi sifatida mamlakat qonun chiqaruvchi organi faoliyatining ayrim jihatlarini muhokama qilgan. Jumladan, BMTning O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risidagi rezolyutsiyasining mazmuni, mazkur rezolyutsiyaga muvofiq milliy parlamentlarning ustuvor vazifalari, O'zbekistonda Barqaror rivojlanishga erishishda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlarining mohiyati ochib berilgan.

Muallif Parlamentlararo itifoq va O'zbekiston o'rtasidagi manfaatlari munosabatlari mazmuniga, O'zbekiston hamda Yevropa o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlikning jadal rivojlanishi va istiqbollarga, mamlakatimiz parlamentining xorijiy mamlakatlar parlamentlari bilan hamkorligi tendensiyalariga ekspert sifatida baho bergan.

Kitobning “Ma'naviyat va ma'rifat — tafakkurning qo'sh qanoti” deb nomlangan oltinchi qismida O'zbekiston mustaqilligi bayramiga bag'ishlab chop etilgan “Yangi O'zbekiston” kitob-albomi, akademik Oqil Salimovning “Yangi O'zbekiston davlati” kitobi, Ikkinchi Sharq Renessansini boshlab bergan buyuk davlat arbobi va islohotchi Amir Temur tavalludining 685 yilligini keng nishonlash doirasida nashr etilgan kitoblar, “Insoniyat tafakkuri javohirlari” deb nomlangan, dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shilgan buyuk kashfiyotlarning turkum jamlanmasi, mashhur faylasuflar g'oya va qarashlarini o'z ichiga olgan “Jahon falsafasi qomusi” kabi asarlariga ilmiy-amaliy taqriz-taqdimotlar o'z ifodasini topgan.

“Yangi O'zbekiston — bu ibora Millat Sardori ilgari surgan va bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan ezgu g'oyadir. Bu g'oya zamirida: bir tomondan, bugungi va ertangi ajdodlarimizning Uchinchi Renessans poydevorini qo'yishdek ezgu maqsad-muddaolari; ikkinchi tomondan, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davrlariga asos solgan ulug' ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari; uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o'qish va izlanishga da'vat o'z mujassamini topgan”, deb yozadi muallif.

Kitobning “Inson xotirasi — muqaddas” deb nomlangan yettinchi qismida Ikkinchi jahon urushida matonat ko'rsatgan yurtodoshlarimiz xotirasini yod etish, ularga hurmat, ehtirom va e'zoz ko'rsatish oliy darajadagi milliy qadriyatga va davlat siyosatiga aylangan muallif tomonidan mohirona ko'rsatib berilgan.

Muallif Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahrida barpo etilgan “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasi, undagi “Matonat madhiyasi” yodgorligi va Shon-sharaf muzeyining ahamiyatiga e'tibor qaratgan, ularni o'zbekona falsafa, xalqona siyosatning amaldagi yorqin natijasi deb atagan. Yangi O'zbekistonning shiddatli islohotlariga xos muhim xususiyati deya yuksak baho bergan. “Xorijiy davlatlardagi memorial majmualarni ham ko'rganman, lekin ularning birortasida xalqning janggohlardagi “jasorati va front ortidagi matonati Toshkentda yaxlit majmua tarzida bunyod etilgan G'alaba bog'idagi singari keng ko'lamda, haqqoniy va adolatli ravishda ko'rsatib berilmagan” deb yozadi muallif.

Kitobning “Yangi O'zbekiston: tinchlikevar, faol va tashabbuskor tashqi siyosat” deb nomlangan sakkizinchi qismida jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar sharoitida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ayrim muhim yo'nalishlariga e'tibor qaratilgan. Bunda yangi O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtira oladigan mintaqaviy yetakchi maqomiga, balki qo'shni mamlakatlar uchun ham ularning manfaatlarini ilgari suruvchi ishonchli yetakchi bo'lishga qodir davlatga aylanayotgani e'tirof etilgan.

Kitob uni mutolaa qilgan o'quvchida O'zbekiston taraqqiyotining sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichi — yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini, uning ichida, faol tashkilotchilaridan birining ko'zi bilan qarashga imkon beradi. Kitob jamiyat taraqqiyotining turli jabhalariga doir har xil mavzularga bag'ishlangan maqolalardan iborat bo'lsa-da, ular yagona mantiqning — yangi O'zbekiston mantig'ining turli qirralarini ifodalagan. Bu mantiqda jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar kelajakda “o'zbek mo'jizasi” nomini olishi mumkin bo'lgan barcha sohalarda ulkan sakrashning poydevori qurilishi namoyon bo'ladi. Muallif bu poydevor g'oyasini Uchinchi Uyg'onish davri yangi O'zbekistonning siyosiy-huquqiy falsafasi sifatida taqdim etgan.

Albatta, mazkur kitobning barcha jihatlarini bitta maqola doirasida yoritish mushkul. Lekin ta'kidlash joizki, kitob hozirgi kunda yurtimizdagi o'zgarishlarning, davlat ichida va boshqa davlatlar bilan munosabatlarda yuz berayotgan jarayonlarning ahamiyatini tushinishga yordam beradi. Kitobda falsafa, huquq, siyosat, tarix, sotsiologiya sohasidagi nazariy va amaliy bilimlar jamlangan. Muallifning yuksak hayotiy, ilmiy va amaliy tajribasi muhokama qilingan har bir mavzuning asl ma'nosini anglashni ta'minlaydi.

Ushbu kitob yangi O'zbekiston g'oyasi mohiyatini anglash bilan bog'liq ko'pgina muammolarni qamrab olgan va bu borada eng muhim fundamental bilimlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur kitobni keng jamoatchilik, akademik doiralr, xalqaro va milliy ekspert hamjamiyati vakillari, davlat idoralari xodimlari, fuqarolik jamiyati instituti vakillari, talabalar, pedagoglar, umuman, yangi O'zbekistonni barpo etish jarayoniga qiziqadigan har bir kishi uchun foydali ma'lumotlarga boy qo'llanma deb bemaol ayitish mumkin.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока”
gazetalari tahririyati” DMMUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar MahkamasiBosh muharrir:
Salim DONIYOROVTahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va
muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli
chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas'ul.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
41157 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Xurshid AbdullayevManzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 04:15 Topshirildi — 05:00